



**ЎЗБЕКИСТОН
РЕСПУБЛИКАСИНИНГ
БАРҚАРОР
РИВОЖЛАНИШ МИЛЛИЙ
МАҚСАДЛАРИГА
ЭРИШИШДА ЁШ
ОЛИМАЛАРНИНГ ИЛМ-
ФАНДАГИ ФАОЛЛИГИ**



✦
**ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯ**





**«Ўзбекистон Республикасининг
барқарор ривожланиш миллий
мақсадларига эришишда ёш
олималарнинг илм-фандаги фаоллиги»
мавзусидаги халқаро илмий-амалий
конференция**

**Международная научно-практическая
конференция на тему
«Роль молодых женщин ученых в науке в
достижении национальных целей
устойчивого развития Республики
Узбекистан»**

**International scientific-practical conference
«Role of women in achieving the goals of
sustainable development»**

Тошкент, 2023 йил 10 февраль

“Илм-фан билан шуғулланиш, илмий янгилик яратиш – бу игна билан қудуқ қазинига баробар. Мен ўзим шу соҳадан чиққаным учун бу ишнинг нақадар қийин ва мураккаб эканини яхши биламан. Шунинг учун ҳам оила таълими ва фарзанд тарбиясини илмий-тадқиқот билан бирга олиб бораётган, бу борада амалий ютуқ ва натижаларга эришадиган олима аёлларни шахсан мен чинакам матонат ва жасорат соҳибалари деб биламан ва юксак қадрлайман”.

*Ўзбекистон Республикаси Президенти
Ш.М.Мирзиёев*

Ташкилий қўмита:

Организационный комитет:

Organising Committee:

Раис – И.У.Маджидов – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети ректори, профессор.

Ҳамраис – Р.Х.Ширинова – ЎЗМУ хорижий алоқалар бўйича проректор, профессор, Ўзбекистон хотин-қизлар “Olima” уюшмаси раиси ўринбосари.

Ҳамраис – Р.Х.Муртазаева – ЎЗМУ профессори, Ўзбекистон хотин-қизлар “Olima” уюшмаси раиси.

Ташкилий қўмита аъзолари:

Члены организационного комитета:

Member of the organizing committee:

С.С.Бекназарова – Ўзбекистон хотин-қизлар “Olima” уюшма ҳузуридаги Ёшлар Академияси раиси, ТАТУ кафедра мудири, техника фанлари доктори, профессор

М.А.Зоҳидова – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети “Olima” уюшмаси раиси, физика-математика фанлари номзоди, профессор в.б.

З.Р.Ишанходжаева – Ўзбекистон хотин-қизлар “Olima” уюшмаси раиси ўринбосари, профессор, тарих фанлари доктори.

Ё.Н.Маджидова – Ўзбекистон Республикаси Бош неврологи, ТошПТИнинг кафедра мудири, профессор, тиббиёт фанлари доктори.

Д.Э.Тўхтабоева – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети тарих факультети тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), “Olima” уюшмаси илмий котиби.

Г.Ю.Рофиева – стратегик ривожлантириш ва халқаро рейтинглар бўлими бошлиғи.

Техник ёрдамчилар:

М.К.Жаумитбаева – Мухаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети докторанти

Н.М.Мирзаева – Мухаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети ассистенти

А.Ш.Раимова – Ўзбекистон Миллий университети тарих факультети “Ўзбекистоннинг энг янги тарихи” кафедраси ўқитувчи.

Тақдим этилган мақолалар маъзунига ва барча стилистик тузилмасига муаллифлар жавоб беради.

Султонова Н.Р. <i>Экфрасис в рассказе И. А. Бунина "Безумный художник"</i>	225
Toshmurodova S.Q. <i>Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxondaryolik jangchilarning frontda ko'rsatgan jasorati.</i>	227
Turdiyeva M.J. <i>O'zbekistonda ayollarga yaratilayotgan imkoniyatlar va jamiyat rivojida ularning o'rni</i>	231
Turorova P. <i>Zulfiya bo'riyeva ijodida milliy iftixor va vatan tuyg'usi tasviri</i>	233
Усанова Р., Усанова Г., Абдурахмонова З. <i>Жамиятда аёллар мақомини кўтариши давр талаби</i>	236
Файзиёва М.С <i>Особенности развития жанра "short story" В английской литературе</i>	237
Хакимjonova N.G'. <i>O'zbekiston ssr tarixidagi birinchi rahbar ayol yodgora nasriddinovaning faoliyati</i>	240
Хакимова М.Ф., Каюмова М.Ш. <i>Маърифатли жамиятни қуришда хотин-қизларнинг ижтимоий фаоллигини ошириши</i>	242
Хайруллаева М. <i>Women Access to Higher Education in Britain up to the Turn of the 20th Century.</i>	244
Хайруллаева М.О'. <i>Yangi o'zbekistonda xotin-qizlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi</i>	247
Hamroyeva S.H., Abdusalomova N.B. <i>Yangi O'zbekistonda davlat strategiyasi darajasida e'tibor qaratilayotgan ayollar mavqeyi</i>	250
Shamshiyeva V. <i>Xotin - qizlarning o'rni va mavqeyini oshirishda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar</i>	253
Sharipova M.B., Ramazonova F.U. <i>Ayollar estetik tafakkurini boyitishda qahramonlik eposining o'rni</i>	255
Шаропова Н.Р. <i>Ўзбекистонда тадбиркор аёлларнинг салмогини оширишга доир муаммолар ва ечимлар</i>	257
Шин М.В. <i>Современный герой в романе XXI века</i>	260
Shodmonova M.S. <i>Milliy liboslarning zamonaviy va milliy brendlarni yaratilishini tahlil qilish.</i>	262
Юлдашева О.Б. <i>Образ востока в рассказах а.волоса</i>	264
Яхшибоева Н.Э. <i>Бадий таржимада колористик ибораларнинг ўрни</i>	266
ПЕДАГОГИКА, ФИЛОЛОГИЯ, ПСИХОЛОГИЯ	
Абдуллаева Н.Э. <i>Замонавий тилишуносликда лингвопрагматиканинг ўрни</i>	268
Абдулхай Г.У. <i>Олий таълимда таълим тенденциялари</i>	272
Abduraxmonova N.Z., Nurmatova G.Kh. <i>Ilmiy janrdagi nanotexnologiya terminlarining lingvostatistik tahlili</i>	274
Акрамова Ф.А. <i>Оила мустақамлигини таъминлашда психологик хизмат кўрсатишининг зарурати</i>	277
Aliyeva O.F. <i>Etnofrazemalarda ramziy belgilar ifodasi</i>	281
Alimova F.M. <i>Highly qualified staff in industrial educational integration</i>	285
Atoboyeva A.M. <i>Women's psycho-pedagogical behavior for teaching and improving gender-equitable education</i>	288
Ahrorova F. B. <i>Different aspects of pronunciation in foreign languages</i>	290
Аяпбергенава Н. <i>Основные компоненты невербальной коммуникации</i>	292
Базарбаева А.К. <i>Теоретические формирования когнитивный компетентности воспитателей дошкольного образования</i>	294
Bazarova U.M. <i>Talabalarning xorijiy til vositasida axloqiy-estetik tarbiyalash imkoniyatlari</i>	297
Bai Jie <i>The motive force of new media language development</i>	299

O'ZBEKISTONDA AYOLLARGA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR VA JAMIYAT RIVOJIDA ULARNING O'RNI

Turdiyeva Mohira Juraqulovna

Buxoro davlat universiteti

Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniy: "Qizlar bilim olishga hammadan ko'proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar", deganida naqadar haq edi. Ma'lumki chuqur bilim, ma'naviy barkamollik ustun joyda taraqqiyot bo'ladi. SHunday ekan, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy poklanishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon, avvalo, ayoldan boshlanadi. Ayol ma'naviyatini millat ma'naviyatining tub ildizi, deyish mumkin.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularga munosib faoliyat ko'rsatish va yashash sharoitlarini yaratib berish, qobiliyat va salohiyatlarini ro'yobga chiqarish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida tegishli yuksak o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

20-30 yillar ilgari ongimizga singib ketgan bir stereotip bor edi: ilm-fan ayolning ishi emas. Ammo tarixiy haqiqatlarga murojaat qilsak, ayollarning fan, madaniyat, ma'naviyat, tibbiyot olamida alohida o'ringa ega ekanligini guvohi bo'lyapmiz. Ilm-fan, jamiyat taraqqiyotiga erkaklar bilan bir safda o'zining munosib hissasini qo'shayotgan ayollar soni oz emas. Afsuski, ayol olimlar hamma vaqtda ham etarli shuhrat qozona olmagan. Bugungi kunda xotin-qizlarni ilm-fanning eng murakkab yo'nalishlarida ham ishtirok etayotganlarini ko'rishimiz mumkin. Albatta, bu jamiyat uchun quvonarli holat.

Barcha qonun hujjatlarimizning asosi Konstitutsiyamiz hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi, Oila Kodeksi, Fuqarolik Kodeksi, Jinoyat Kodeksi, O'zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida gi, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosat to'g'risida gi, Aholi bandligi to'g'risida gi, Mehnat muhofazasi to'g'risida gi, Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida gi, Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida gi, Ta'lim to'g'risida gi va boshqa normativ huquqiy hujjatlarda asosiy maqsad yurtimiz ayollarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga, opa-singillarimizning faolligini oshirishga, ularga ma'naviy-ruhiy madad berishga, qolaversa, ularni turli tahdid va qotib qolgan eskicha qarashlardan himoya qilishga qaratilgan.

Jamiyat hayotining turli jabhalarida gender tenglikni ta'minlash O'zbekiston ichki siyosiy konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiradi. Bugungi kunda O'zbekiston akademik doiralarida ayollarning o'rni bilan bema'lol maqtana oladigan davlatlar qatoriga kiramiz. O'tgan 2022 yil Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tantanali tadbirda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev: "Ilm-fan bilan shug'ullanish, ilmiy yangilik yaratish - bu igna bilan quduq qazishga barobar. Men o'zim shu sohadan chiqqanim uchun bu ishning naqadar qiyin va murakkab ekanini yaxshi bilaman. SHuning uchun ham oila tashvishlari va farzand tarbiyasini ilmiy-tadqiqot bilan birga olib borayotgan, bu borada amaliy yutuq va natijalarga erishayotgan olim ayollarni shaxsan men chinakam matonat va jasorat sohibalari deb bilaman va yuksak qadrlayman", deya ta'kidladi. Bu suzlar bilan Prezidentimiz biz ayollarga zo'r ma'naviy dalda va motivatsiya berdi.

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi huzurida Olima ayollar jamiyati tuzilishi, unga har yili 50 milliard so'm ajratilishi, shuningdek, joriy yildan shu kabi maqsadlarga 1,8 trillion so'm yo'naltirilishi ham ayni muddao bo'ldi. Oliy ta'limdan keyingi bosqichga o'qishga kirgan

ayol-qizlarning shartnoma pullari toʻliq davlat tomonidan toʻlab berilishi va bakalavriat bosqichiga oʻqishga qabul qilingan ayol-qizlarga foizsiz taʼlim kreditlarining ajratilishida davlat tomonidan berilayotgan eʼtiborning ahamiyatini koʻrishimiz mumkin. Bugungi kunda bizning jamiyat chinakamiga xotin-qizlar oʻz soʻzini ayta oladigan minbarga aylanmoqda desak mubolagʻa boʻlmaydi. Qayd etishimiz joizki, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi, inson kapitali rivojlanishiga bebaho hissa qoʻshuvchi omillardan biri, ayollarning ilm-fan sohasida ulushi koʻp boʻlishidadir.

Albatta, har qanday mamlakatda boʻlgani kabi yurtimizda ham etarli daromad manbaiga ega boʻlmagan, ishsiz xotin-qizlarimiz bor. Aynan shunday ayollarning muammolari bilan qiziqadigan, oʻz tashvish-oʻylariga oʻralashib, dardini aytolmay yurgan xotin-qizlarning dardlarini eshitish uchun, boquvchisini yoʻqotib, qay eshikka borishni bilmay turgan ayollarning dardu tashvishlarini tinglab, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ularni qiynab kelayotgan muammolarni hal etish choralari koʻrilmoqda. Tadbirkorlikka qiziqishi baland, biznesni boshlash harakatida yurgan ayollarga imtiyozli kreditlar olib, oʻz faoliyatini boshlashiga davlat tomonidan keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ayollarga izzat-ikrom koʻrsatish, ularni ardoqlash, ogʻirini engil qilish ishlariga davlatimiz tobora katta ahamiyat bermoqda. Lekin ayollar manfaatini himoya qilish, ularni bandligini taʼminlashni oʻz oldiga maqsad qilgan jamiyatimiz bu masala echimida yanada faolroq boʻlishi zarur. Zotan, ayollarga munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, ularni tadbirkorlikka jalb qilish nafaqat rahbarlarning, balki barchamizning ham vazifamiz, muqaddas insoniy burchimizdir. Jamiyatda ayollarning salohiyatini yuzaga chiqarish, ularning barkamol avlodni tarbiyalashdagi rolini yanada kuchaytirish va boshqa bir qator amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, oʻz samarasini berib, endilikda ayollarimiz jamiyatimizning rivojiga turli jabhalarda oʻzlarining munosib hissalarini qoʻshmoqdalar.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston respublikasining qonuni xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisi dagi OʻRQ-562-son, 02.09.2019 yil.
2. Oʻzbekiston respublikasi oliy majlisi senatining qarori 2030 yilga qadar oʻzbekiston respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida, SQ-297-IV-son, 28.05.2021 yil.
3. Turdiyeva M.J. Ayol-oila va jamiyat taraqqiyotining ustuni, Ayol va zamon mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari toʻplami. Buxoro-2018 yil, 112-114 b
4. Turdiyeva M.J. Barkamol shaxsni shakllantirishda ayol-murabbiyning burchi va masʼuliyati Oʻzbekiston Respublikasi xotin-qizlar Olima uyushmasi. Ayol-faol tadbirkorlik subʼekti va innovatsion gʻoya tashabbuskori. Resublika ilmiy-nazariy konferensiya. 2018 yil 19 yanvar, 182-184b.
5. Turdiyeva M.J. Oilada milliy tarbiyaning oʻrni, Oʻzbekiston Respublikasi xotin-qizlar Olima uyushmasi. Ayol-faol tadbirkorlik subʼekti va innovatsion gʻoya tashabbuskori. Resublika ilmiy-nazariy konferensiya. 2018 yil 19 yanvar, 209-210b.